

ISSN: 2181-4562

DOI Journal 10.56017/2181-4562



IMFAKTOR

# JOCAA

VOLUME I, ISSUE 10

МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ

# JOURNAL OF CULTURE AND ART

КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

DECEMBER

2023



ISSN: 2181-4562  
DOI Journal 10.56017/2181-4562

# МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 10-СОҢ

## ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-I, НОМЕР-10

## JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-I, ISSUE-10

ТОШКЕНТ – 2023

# МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

№ 10 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4562-2023-10>

## БОШ МУҲАРРИР:

Халикулова Гўзал  
Эркиновна

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти  
профессори в.б., Санъатшунослик фанлари номзоди

## МАСЪУЛ МУҲАРРИР:

Мелиқўзиев Иқбол  
Мамасодиқович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти  
кафедра мудири, профессор в.б., Санъатшунослик  
фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

## ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ:

Касимов Нозим  
Козимович  
Ходжаметова Гулчира  
Илишевна

Маданият ва туризм вазирлиги “Таълим ва илм-фанни  
ривожлантириш бошқармаси” бошлиғи, профессор  
Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти Нукус  
филиали “Санъатшунослик” факультети декани, Тарих  
фанлари номзоди, профессор

Абдувоҳидов  
Фахриддин  
Мелигалиевич

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти  
кафедра мудири, доцент, Санъатшунослик фанлари  
бўйича фалсафа доктори (PhD)

Кадиров Рамз  
Турабович  
Умаров Мамур  
Боташикович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти “Саҳна  
нутқи” кафедраси доценти

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти  
“Санъатшунослик ва маданиятшунослик” кафедраси  
профессори в.б., фалсафа фанлари номзоди

Худоев Ғани  
Муҳаммадович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти  
кафедра мудири, Санъатшунослик фанлари бўйича  
фалсафа доктори (PhD)

Бердиханова Шахида  
Нурлыбаевна

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати  
институти “Ўзбек мақоми тарихи ва назарияси”  
кафедраси мудири, санъатшунослик фанлари бўйича  
фалсафа доктори (PhD)

Дўсанов Раҳимжон  
Раимқулович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти, “катта  
ўқитувчи”, мустақил тадқиқотчи

Суннатиллаев Асатилло  
Суннатович

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати  
институти “Илмий тадқиқотлар, инновациялар ва илмий-  
педагогик кадрлар тайёрлаш” бўлими бошлиғи, мустақил  
изланувчи (PhD)

Алланбаев Рудакий  
Оринбаевич  
Зиявутдинова Зулфия  
Усеиновна  
Раимова Дилфузахон  
Махаммадсолиевна  
Ботирова Хилола  
Турсунбаевна

Қорақалпоғистонда хизмат кўрсатган артист, “Шуҳрат”  
медали соҳиби, профессор в.в.б

“Мусиқа санъати” ихтисослиги бўйича доцент

“Мусиқа санъати” ихтисослиги бўйича доцент

“Мусиқа санъати” ихтисослиги бўйича доцент

“Маданият ва санъат” журнали 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган. Мазкур журнал **6 та** халқаро маълумотлар базаларида индексланган бўлиб, жорий йил учун **UIF 2023 = 7.7 “импакт-фактор”** кўрсаткичига эга.

Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Олий аттестация комиссиясининг 2023 йил 24 июлдаги 01-02/1199-сонли хатига мувофиқ ушбу журналда чоп этилган мақолалар **хорижий мақолалар сифатида тан олинади.**

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдурахмон Хасанов

Таҳририят манзили: Тошкент шаҳар, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй. Почта индекси 100152. Веб-сайт: [www.imfaktor.uz/com](http://www.imfaktor.uz/com)

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: [tahririyat@imfaktor.uz](mailto:tahririyat@imfaktor.uz)

© “ИМФАКТОР Pages” илмий нашриёти , 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

# МАДАНИЯТ ВА САЊЪАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

**DADABOYEV Xasanboy Maratovich***Andijon davlat universiteti**San'atshunoslik fakulteti**Musiqa ta'limi kafedrası**o'qituvchisi*<https://doi.org/10.5281/zenodo.10351029>

## CHOLG'U IJROCHILIGIDA ANSAMBLI SINFI VA ANSAMBL HAQIDA TUSHUNCHA

### ANNOTASIYA

Ushbu maqolada talabalarga ansambl haqida tushuncha berish, uning qanchalik ahamiyatga ega ekanligini, talabalarning ijro saviyasini o'stirish haqida ma'lumot berilgan. Talaba yoshlarga ansamblarning turlarini bilishi, ansamblda cholg'ularning joylashishi, ijro etiladigan turli janrlardagi asarlarni o'rganishi kerakligi haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** cholg'u, xalq, kuy, qo'shiq, dutor, A.Farobiy, S.Urmaviy, musiqa, kitob, musiqa nazariyasi, musiqa kitobi, tarix, musiqa ilmi, mizrobli, noxunli, tanbur, rubob, rezanator, tortilgan ochiq cholg'u asboblari, shohrux, chiltor, lira, chang, arfa.

## КЛАСС АНСАМБЛЯ ИНСТРУМЕНТАЛЬНОГО ИСПОЛНТЕЛЬСТВА И ПОНИМАНИЕ АНСАМБЛЯ

### АННОТАЦИЯ

В этой статье рассказывается о том, как дать студентам представление об ансамбле, насколько он важен, повысить уровень исполнения учащихся. Учащаяся молодежь информируется о том, что она должна знать виды ансамблей, расположение инструментов в ансамбле, разучивать произведения разных жанров, в которых они исполняются

**Ключевые слова:** инструмент, народ, мелодия, песня, дутор, А.Фараби, С.Урмави, музыка, книга, Теория музыки, книга музыки, история, музыкальная наука, мизробли, нохунли, танбур, рубоб, резанатор, натянутые открытые инструменты, Шахрух, чилтор, лира, Чанг, Арфа.

## ENSEMBLE CLASS IN INSTRUMENTAL PERFORMANCE AND THE CONCEPT IN THE ENSEMBLE SHEET

### ANNOTATION

This article describes how to give students an idea of the ensemble, how important it is, and to increase the level of performance of students. Students are informed that they should know the types of ensembles, the arrangement of instruments in the ensemble, and learn the works of different genres in which they are performed.

**Key words:** instrument, people, melody, song, dutor, A.Farabi, S.Urmavi, music, book, Theory of music, book of music, history, musical science, mizrobli, nokhunli, tanbur, rubob, resonator, stretched open instruments, Shahrukh, chiltor, lyre, Chang, Harp.

Musiqa san'atida cholg'u ijrochiligi azal-azaldan o'zining serqirraligi bilan ajralib turadi. Cholg'ular rang-barangligining asosiy sabablaridan biri- ijrochilikning ushbu turiga xalq orasida keng qiziqish bo'lsa kerak. Har bir xalq madaniy amaliyotida o'z yurtining milliy an'alaridan kelib chiqib, ruhiyatiga mos holda yuzaga kelgan cholg'ulari mavjud. Ular qaysidir ma'noda xalqning ma'naviy jihatlarini ham o'zida aks ettiradi. Shu bois, musiqiy cholg'ular xalqlarning milliy g'ururi sifatida ta'kidlab o'tiladi.

Qaysi xalq milliy cholg'ularga boy ekan, bu xalqning madaniyati buyuk, ma'naviyati cheksizdir. Darhaqiqat, o'zbek xalqi ma'naviyatining boyligi beqiyos. Shuning bilan birga u turli xildagi mukammal milliy cholg'ularga ega. Har bir cholg'uning o'z dunyosi, falsafasi va tarixi bor. Ularning tarixi – xalq tarixidir. Shu bois til ojiz qolgan paytda cholg'ular tilga kirar ekan, tarixning mislsiz ummonidan so'zlar (nola qilar) ekan .

Mamlakatimizda yosh avlodga puxta ta'lim berish, ularni jismoniy va ma'naviy yetuk insonlar etib tarbiyalash, shuningdek, yoshlarga oid davlat siyosatini zamon talabi darajasiga ko'tarish masalalariga eng ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. Oldimizga qo'yilgan muhim vazifalarni amalga oshirish uchun hamma jabhalarda xizmat qilayotgan ustoz-o'qituvchilar muntazam izlanishlari, yoshlar ta'lim-tarbiyasiga mas'ullikni oshirishlari lozim. Darhaqiqat, Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2019 yil 19-martda ilgari surgan ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalaridagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha beshta muhim tashabbusida belgilangan vazifalarni ijrosini ta'minlashda xizmat qiladi.

Ma'lumki, mamlakatimizda uzluksiz musiqiy ta'lim tizimi shakllantirilgan bo'lib, unda miliy cholg'ularimiz g'ijjak, nay, chang, dutor, tanbur kabi cholg'ular bilan birga yangi yaratilgan rubob prima, dutor alt, dutor bas, g'ijjak alt, g'ijjak qobuz bas va g'ijjak qobuz kontrabas cholg'ulari bo'yicha ham mutaxassislik bo'yicha ta'lim berib kelinmoqda. Shu kungacha bu cholg'ular bo'yicha ayrim qo'llanmalar mavjud bo'lsada, yangi yaratilgan cholg'ular uchun maxsus o'quv adabiyotlarining yetishmasligi bugunga kelib ham o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

«Ansambl» fransuzcha «ensemble» so'zidan olingan bo'lib, birlik, uyg'unlik, ohangdoshlik ma'nolarini bildiradi. Musiqa san'atida ansambl ko'p ma'noga va turlarga egadir. Jumladan:

- a) muayyan musiqa asarlarini bir nechta ijrochilar tomonidan birgalikda ijro etish;
- b) sozanda va xonandalarning kichikroq to'dasi va ularga mo'ljallangan asari, yirik janrlar tarkibida uchraydigan ansamblar.

Opera, oratoriya, kantata janrlarida kichik ansamblar keng qo'llaniladi. Ijrochilar soniga qarab ular – duet, trio, kvartet, kvintet, sekstet, septol yoki oktet deb nomlanadi [1].

*Ansambl* - soʻzining tushunchasi- xalq cholgʻulari yonalishida ansambl sinfining tashkil etishda ansambl rahbaridan ijrochilarning ijro mahorati, nazariy-amaliy bilim saviyalari va ansamblida ijron etish koʻnikma va malakalarini eʼtiborga olish talab etiladi.

Jamoa boʻlib ijro etishda talaba-ijrochilar bir-birlarini tinglab, xamda ansambl rahbarining fikrini maʼnosini anglab ijro etiladigan repertuarni chuqur mulohaza etib yondashish talab etiladi.

Ansambl mashgʻulotlarida har xil yakkanavoz cholgʻuchilarga hamda xonandalarga, joʻrnovozlik qilish talabalarga ashula yoki ijro etilayotgan asar matni bilan tanishish, turli asarlarini ijro etish sirlarini oʻzlashtirish bilan birga mutaxassislik va boshqa darslarda olgan maʼlumotlarining kengayishiga imkoniyat yaratadi. Ayni paytda cholgʻuchilar ansamblida ijrochilik faoliyatini olib boradigan har qanday sozanda, mutaxassislik darslarida yakka tarzda olgan bilimlaridan va yakkanavoz ijrochilikdan farqli oʻlaroq musiqani chuqurroq oʻrganadi, musiqiy tafakkuri yanada kengayadi, musiqani sezish, his qilish qobiliyatlari rivojlanadi. Natijada kelgusida boʻlajak sozanda sifatida turli xil jamoalarda ishlash koʻnikmalari shakllanib boradi [2].

Ansambl tarkibida ishtirok etayotgan har bir yosh sozanda-ijrochini kamolatga yetkazishda, musiqiy asarlarning gʻoyaviy va badiiy tarzda chuqur oʻzlashtirishi, oʻz ijrochilik mahoratini va sanʼatini jamoaviy ijrochilikka uygʻunlashtirib va boshqa cholgʻuchilarni eshitish va ularga kerak boʻlsa yakkanavozlik sifatida, shuningdek ansamblning boshqa ahzolari uchun joʻrnovozlik vazifasini bajara bilishi umumiy tarbiyaning muhim omillaridan biridir. Ansambl sinfi fani boʻyicha mashgʻulot jarayonida avvalo oʻz cholgʻusini asrash, avaylash, ehzozlash bilan ardoqlash uqtiriladi, buning natijasida cholgʻuda sifatli va tarovatli sadolar chiqarish yoʻllariga alohida ahamiyat berilishi koʻzda tutiladi, shuningdek jamoaviy ijrochilik uslublarini, koʻnikmalarini mahsuliyat bilan toʻgʻri oʻzlashtirish maqsadga muvofiqdir [3].

Taʼlim muassasalarining, ijrochilik amaliyotida oʻziga mutanosib va nomdosh cholgʻulardan guruhlar tuzish tendensiyasi avj ola boshladi. Dutorchilar ansambli, changchilar ansambli, doyrachilar ansambli, hattoki 1960 yilda Sulaymon Taxalov boshchiligida 12 ta cholgʻuchilardan iborat-udchilar ansambli, yoki ustoz sozanda Turgʻun Alimatov sinfida tanburchilar ansambli ham ijrochilikning yangi-yangi qirralarini namoyish etishga muyassar boʻldi. Oʻzbekiston davlat konservatoriyasida turli tarkibdagi ansamblar tashkil etilib, koʻp yillardan beri oʻz faoliyatini munosib tarzda olib bormoqdalar.

Bunga yorqin misol qilib, oʻz davrida mashhur boʻlgan professor A.Odilov rahbarligidagi changchilar ansambli, professor M.Toshmuhamedov rahbarligidagi gʻijjakchilar ansambli, dotsent Gʻ.Ergashev rahbarligidagi afgʻon rubobchilar ansambli, “Orkestr dirijyorligi” kafedrasini mudiri, professor F.Abdurahimova rahbarligida tashkil etilgan “Soʻgʻdiyona” xalq cholgʻulari kamer orkestri faoliyati alohida tahsinga loyiq [3].

Ansambl sinfini tashkil etishda pedagog talabaga ansambl xaqida oʻz fikrlarini nazariy xamda amaliy tushuntirib olib boradi. Birinchi navbatda ansambl rahbaridan akademik ijroning toʻliq shakli, ustoz-shogirda anʼanasidagi toʻliq shakli xamda zamonaviy musiqi xaqida chuqur bilim egashi boʻlishi shart. Ansambl sinfida taʼlim olayotgan talabalarga tarkibga mos repertuar tanlash ahamiyatga ega. Repertuarni oʻrganishda talabalarning bilim xamda ijro saviyasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ansambl rahbaridan badiiy asarni ansamblga moslashtirish jarayonida badixaning (improvizatsiya) katta oʻrin tutishi talabalarga tushuntirib borish lozim. Bunda ansambl rahbari bir ovozlik asarni polifonik koʻrinishda kop ovozga boʻlib cholgʻularga toʻgʻri taqsimlash metodikasini talabalar koʻrsatib boorish muxim vazifalardan biridir.

Ansambl rahbaridan musiqi shakllari xamda musiqiy yonalishlar xaqida yetrlicha bilimga ega boʻlish talab etiladi.

Misol uchun quyidagi janrlarni ko‘rib chiqish mumkin:

1. Folklor musiqa.
2. Mumtoz san‘at;
3. Jahon klassikasi;
4. Estrada san‘ati;
5. Zamonaviy musiqa;
6. Sayqallash san‘ati (aranjirovka)

1. Folklor musiqa- xalqlarni og‘zaki an‘anadigi ijodi, ya‘ni og‘izdan –og‘izag o‘tib kelgan asarlar. Bu asarlarni xalq cholgularida o‘ziga xos va nafis , milliylikini tarannum etuvchi ijroni tashkil etish.

2. Mumtoz san‘at- maqom va shashmaqomdagi mushkilot (cholg‘u)qismidagi asarlarni xalq cholg‘ulari ansamblida badiiy saviyaga xamda professional ijroga yondashib faoliyat olib borish.

3. Jahon klassika - Estrada san‘ati yonalishidagi blyuz, jazz, jazz-rok, xart-rok, rokkin-rol, xip-xop, rep, etno-jazz kabi janrlardagi ijrolarni puxta egallash talab etiladi.

4 Estrada san‘ati. – ushbu janrdagi musiqada tonallik, ritmik-o‘zgarishlar, murakkab garmonizatsiya kabi bilimlar ansambl tashkil qilishda asosiy negizini tashkil etadi.

5. Zamonaviy musiqa– bastakorlar ijodidagi asarlarini xalq cholg‘ulariansamblida o‘ziga hos ijro etish uslubiyotini shakllantirish muhim vazifalardan biridir.

6. Sayqallash san‘ati (aranjirovka)- bu san‘atni egallagan ansambl rahbari asar tanlab, uni ijroviy mohiyatini oldindan ko‘ra oladigan bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lishi muhim. Bunda har bir chiolg‘u guruhlarini vazifa va maqsadlarini to‘g‘ri yonaltira oladigan bilim egasi bo‘lishi shart. Talabalardan tashkil etilayotgan absambl sinfining xar bir cholg‘ular imkoniyatlarini (cholg‘ular diapazoni, tembrning rang-barabngligi va ansamblidagi cholg‘ular vazifalari) to‘liq o‘zlashtirganlik darajasi axamiyatga ega.

Ansambl sinfida bilim olayotgan talaba milliy va zamonaviy ritm xaqida to‘liq bilimga ega xamda asarning musiqa ifodalarini taxlil qilib, ko‘rsata olish imkoniyatlariga ega bo‘lish kerak. Ansambl tashkil etishda ansambl sinfi o‘qituvchisi avvalom bor intizom, ijroviy tartib xamda ansamblida cholg‘ularni to‘g‘ri joylashtirish imkoniyatlarini oldiga maqsad qilib olish darkor. Jamoa bo‘lib ijro etish talabalarda axillikni, murosani, do‘stlikni xamda insof kabi tarbiyaviy xususiyatlarni shakllantiradi

Ansambl – xalq icholg‘ulari ijrochiligida to‘liq tarkibda yonalishdagi barcha cholg‘ular kiradi; nay- nayning oiladosh cholg‘ulari; chamg ; prima rubob; qashqar rubob; avg‘on rubob; prima, alt va bas dutorlari; ksilafon, marimba, doira, nog‘ora, gijjak, alt, bas kabi cholg‘ular kiradi

Ansambl turlariga- dutorchilar, rubobchilar, g‘ijjakchilar, doirachilar va xokazo ansamblari mavjud. Bundan tashqari duet, trio, kvartet va kvintet shakllarda ansambl bo‘lib faoliyat olib borish imkoniyatlar mavjud. Ansambl turlariga yana-"Charos" milliy raqs ansambli, Bahor ansambli – Mukarrama Turg‘unboyeva nomidagi "Bahor" xalq raqs ansambli, Maqom ansambli -maqomlarni ijro etishga ixtisoslashgan xonanda va sozandalar guruhi, sozanda-navozandalar ansambli, milliy kuy va ashulalarimizning ijrosi va h.k.

Xar bir ansamblarning faoliyati davomida ishlash tanlangan repertuarga xos bo‘lib, unda cholg‘ularning kelib chiqishidan, uni sozlanishidan yondashish mumkin.

Masalan: dutor alt – lya birinchi oktava tovushiga sozlanadi, mumtoz asarda maqom dutor re- kichik oktavaga sozlanadi yoki qashqar rubobida ikkinchi torni kvintaga sozlash mumkin (re tovushiga) kabi o‘zgarishlardan foydalanish mumkin.

Ma‘lumki, o‘zbek musiqa san‘atida ansambl ijrochiligi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, milliy musiqamizning o‘ziga xos xususiyatlari shu orqali to‘liq ochib beriladi. O‘zbekistonda ansambl ijrochilik san‘ati o‘zining taraqqiyot yo‘lida yuqori natijalarni qo‘lga kiritganligi sir emas. Buning zamirida belgilangan dasturlar asosida olib borilayotgan ta‘lim tizimi va qadimdan shakllanib kelgan “ustoz-shogird” an‘anasi hamda bugun mamlakatimizda yaratilgan uzluksiz musiqiy ta‘lim tizimida faoliyat olib borayotgan ustozlarning xizmati, o‘z aksini topgan desak mublag‘a bo‘lmaydi.

Butun dunyo musiqachilarining ijrochilik amaliyoti doimiy o‘shish, yangilik izlash, zamonga moslashish va rivojlantirish tamoyiliga asoslanib boradi. Cholg‘u ijrochiligi amaliyoti rivoji sozandalarning mahoratini oshirish, turli xalqlar madaniyatini uyg‘unlashtirish va kichik ansambllar bilan katta-katta tadbirlarni amalga oshirish uslubiga moslashib boradi. Ushbu uslubni yoshlar orasida keng ommalashtirish muhim ahamiyatga egadir. Yakka ijrochilik mahoratining o‘shishi, jamoa bo‘lib ijro etish ko‘nikmalarini hosil qilishda, jahon xalqlari musiqiy madaniyati va san‘atini yaxshi tushunib yetish va ijro etishga katta ta‘sirini ko‘rsatdi. Amaliyotda ushbu jarayonni namoyish etish uchun, o‘zbek xalq cholg‘ularining behisob imkoniyatlari namoyishini davom ettirish maqsadida konservatoriya o‘qituvchilari tashabbusni qo‘lga olib, muayyan taklif bilan chiqdilar [1].

Xulosa qilib aytganda, ansambl fani darslari amaliy mashg‘ulotlardan iborat bo‘lib talabalardan jamoa ijrochiligining muayyan ko‘rinishi ansambl ijrochilik mahoratini yanada takomillashtirish bilan birga, ularning musiqiy tafakkurini kengaytirish, ijro dasturlarini boyitish, ijrochi-sozandaning eshitish qobiliyatini rivojlantirish kabi ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. Mazkur fan mavzulari o‘rganish jarayonida talabaga barcha ma‘lumotlarni to‘liq etkazib berish, ularni o‘z ustida mustaqil ishlashga, qo‘shimcha ma‘lumotlarni manbaalardan o‘zlashtirish hamda o‘z bilimlarini mustaqil nazorat qilib borish kabi omillar asosiy vazifa qilib belgilangan.

“Ansambl sinfi” fani boshqa kasbiy fanlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, talaba bu fanda o‘zlashtirgan bilimlarini “xalq cholg‘ularida ijrochilik”, “xalq cholg‘ularida o‘qitish uslubiyoti”, “turdosh cholg‘ularini o‘rganish”, “orkestr sinfi” fanlari mashg‘ulotlarida qo‘llashi va aksincha boshqa fanlarda olgan bilimlaridan “ansambl sinfi” mashg‘ulotlarida foydalanishi mumkin.

## **IQTIBOSLAR/СНОСКИ/REFERENCES**

1. Z.Turapov, Ansambl sinfi “Musiqa” 2007.
2. A.Q.Lutfillayev Changchilar ansambli “A.Qodiriy” Xalq merosi nashriyoti 2003.
3. H.Nurmatov, O.Nazarov, Sh,Jandarov, Cholg‘uchilar ansambli. “Bilim” 2005.
4. Z.Turapov.Xalq\_cholg‘ularida\_ijrochilik\_Dutor\_bas\_O‘quv\_qo‘llanma2022.

ISSN: 2181-4562  
DOI Journal 10.56017/2181-4562

# МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 10-СОҢ

## ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-I, НОМЕР-10

## JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-I, ISSUE-10

«Маданият ва санъат» электрон журнали 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: [tahririyat@imfaktor.uz](mailto:tahririyat@imfaktor.uz)

Веб-сайт: [www.imfaktor.uz](http://www.imfaktor.uz)